TURIZM FAOLIYATINING MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Karimova Dilnoza Karimovna
Jizzax politexnika instituti
Mo'minov Azizbek
talaba

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm faoliyatini takomillashtirish, hamda uning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: turizm, shahar, mahalliy sayyohlar, AQSh dollari, loyihalar, rivojlantirish.

Аннотация

В данной статье представлена информация о совершенствовании туристской деятельности, а также ее роли в экономике страны.

Ключевые слова: туризм, город, местные туристы, доллары США, проекты, развитие.

Annotation

This article provides information on the improvement of tourism activities, as well as its role in the country's economy.

Keywords: tourism, city, local tourists, US dollars, Projects, Development.

Mamlakatimiz turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2022-2026 yillarda turizm sohasini modernizatsiya qilish hamda jadal rivojlantirish borasida quyidagi ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Shu jumladan, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish.

To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish.

Turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish.

Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va "Aydar-Arnasoy" ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar hamda dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rinini yaratish.

Turizm dunyodagi juda ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bunga sabab turistlarning tashrif buyurgan davlatlari iqtisodiyotiga keltiradigan foydasi juda yuqoriligidir. Mamlakatga tashrif buyuruvchi turist mamlakatning havo yo'llari, temir yo'llar, mehmonxonalar, restoranlar, ovqatlanish shahobchalari, savdo majmualari va yana boshqa ko'plab xizmat ko'rsatish sohalaridan foydalanadi.

Bundan ko'rinadiki, turizm sohasining rivoji yana ko'plab sohalarning rivojiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, aholining ish bilan ta'minlanmagan kattagina qismi turizm sohasida band bo'ladi. Turistik obyektlarda faoliyat yuritish bir qancha oson va serdaromad faoliyatlardan biridir. Turizm tarmoqlarining modernizatsiya qilinishi ko'plab insonlarni ish bilan band qilishi aniq. Mamlakatga keluvchi turistlar sonining oshishi turizm sohasining rivojlanishiga katta ta'sir etuvchi omillardan biridir.

Turizm va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar bilan tanishtirib o’tsak. Turizm o’zining dastlabki shakllarida, asosan, an’anaviy bo’lgan madaniyatlar, iqtisodlar va bilimlar evolutsiyasi bilan turizm yaxshi rivojlantirilgan yaxshi o’rganilgan manzil va belgilangan joyni saqlash ospektlari bilan barqaror turizm deb ataladigan boshqa shaklga ega bo’ladi.

Insonlarni turizm va sayohatga boshlaydigan bir qancha omillar mavjud. Ular, asosan, dam olish bilan bog’liq. Odamlarning uydan uzoqlashishining eng keng tarqalgan sabablari quyidagilar:

- Ma’lum bir faoliyat turi bilan shug’ullanuvchi insonlarning ish faoliyatidan biroz chalg’ishga bo’lgan xohish;
- Dam olish kunlarini bemalol va maroqli o’tkazish;
- Yaqinlar, do’stlar, qarindoshlarni ziyorat qilish, yo’qlash;
- Biznes va professional uchrashuvlarga qatnashish;
- Salomatlikni yaxshilash va sog’likni qayta tiklash;
- Diniy ziyoratlarni amalga oshirish;
- Boshqa har qanday shaxsiy motivlar;

Yuqoridagi sabablardan kelib chiqqan holda turizm rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Tashrif buyuruvchilarni nima maqsadda tashrif buyirayotganliklarini aniqlash va ularga alohida yondashuv orqali qulayliklar yaratish viloyatga tashrif buyuruvchi mehmonlar sonining oshishiga olib keladi.

Mavjud turistik salohiyatni aniqlashda turizmning turlari ham ahamiyatli hisoblanadi. Turli adabiyotlarda turizmning turlari haqida turli xildagi ma’lumotlar keltirilgan. Ularning har birining o’z tasnifi bor. Biz ularning ichidan saralab eng keraklilarini tahlil qilmoqni joiz deb bildik. Ulardan bir nechtasini e’tiboringizga havola etmoqchimiz.

Butun jahon turizm tashkiloti (WTO) turizmning 5ta turini istiqbolli yo’nalish deb elon qilgan[24]:

1. Sarguzasht turizmi;
2. Dengiz va suv havzalari bo’ylab sayohat;
3. Madaniyatni o’rganish turizimi;
4. Ekoturizm
5. Mavzuli turizm;

Sarguzasht turizimi. Bu, asosan, sarguzasht izlovchi turistlar jamoasini o’z ichiga oladi. Bunga saosan tog’ cho’qqisiga chiqish, suv havzalari ostiga sho’ng’ish, baland bin ova ko’priklar ustidan texnik anjomlar (parashut v.h.) orqali sakrash kabilarni kiritish mumkin. Bu borada viloyat ulkan salohiyatga ega deyish qiyin, biroq sarguzasht izlovchi turistlar jamoasiga mavjud imkoniyatlarni ishga solib, ularning maroqli dam olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish mumkin.

Dengiz va suv havzalari bo’ylab sayohat turizmi. Bu suv havzalari bilan bog’liq sayohat hisoblanib, Samarqand viloyatida ulkan suv havzasiga ega emas. Mavjud daryolar tabiiy landshaftidan samarali foydalanishni yo’lga qo’yish mumkin. Xususan, viloyatdagi Qoradaryo daryosi bo’yida yangi turistik markaz barpo etish bo’yicha qurilish ishlari rejalashtirilmoqda.

Madaniyatni o’rganish turizmi. Bu turizm, o’z navbatida, ikkiga bo’linadi:

1) Ziyorat turizmi
2) Ma’daniy tarixiy obida va yodgorliklar turizmi.

Bu borada viloyat ulkan turistik salohiyatga ega. Samarqand viloyati boy madaniy tarixga va ulug’ siymolar dafn etilgan muqaddas qadamjolarga juda boyligi bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi va shu bilan birga yurtimizga tashrif buyurayotgan asosiy turistlar ham Samarqand viloyatiga tashrif buyuradi.

Ekoturizm.

[24] R, Xayitboyev, R. Amriddinova –“turizmning maxsus turlari” uslubiy qo’llanma Samarqand-2008 y.

Tabiat manzaralari xushhavo joylar tabiiy landshaftlarga bo'lgan sayohatlarni o'z ichiga oluvchi bunday sayohat ham turistlarni faol o'ziga jalb etib kelmoqda. Viloyatdagi Zarafshon milliy qo'riqxonasida shunday ajoyib turistik maskan tashkil etish mumkin.

Mavzuli turizm. Bu yo'nalish ham o'z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

1) Iqlim o'zgarishini o'rganish
2) Hayvonot olamini o'rganish
3) O'simliklar dunyosini o'rganish
4) Paleantalogiyani o'rganish kabi qismlarga ajratish mumkin.

Bu borada yurtimizdagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda va ularni bartaraf etishda turli konferensiya anjumanlar tashkil etish orqali ham muammolarga yechimlar topilsa ham mavzuli turizm rivojiga hissa qo'shiladi. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar, O'zbekiston va butun dunyoda yo'qolib ketayotgan Qizil kitobga kirgan o'simlik va hayvonot olamlarini saqlab qolishga bag'ishlangan yig'ilishlar va yana boshqa ko'plab anjuman va yig'ilishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Asta-sekin bu tadbir va anjumanlarni O'rta Osiyo, qolaversa, jahon miqyosida tashkil etishga zamin yaratadi.

Turizmni tashkil etishda ko'plab turizm va sayohat turlarini aniqlash va ularni tegishli tahlil qilish lozim. Bunga sabab mavjud resurslardan samarali foydalanish va yangi sayohat turlarini kashf etib ularni takomillashtirish va omma e'tiboriga taqdim etish. Dunyoda 150dan ortiq sayohat va turizm turlari mavjud bo'lib bularning barchasi o'zining qiziquvchilariga ega. Har bir qiziquvchi bu turist demakdir. Ularni kengroq va chuqurroq o'rganish yaxshiroq qaror qabul qishish va samarali natijalarga erishish demakdir.

Turizm sohasini kengroq o'rganishda har bir turizm turi o'zining boshqa sayohat turlaridan ajralib turadigan jihatlari bilan farqlanadi. Har bir Samarqandga tashrif buyuruvchi turist o'ziga yarasha alohida e'tibor va alohida yondashuvni talab qiladi. Misol uchun muqaddas obida va yodgorliklarni ziyorat qilishga kelgan sayyoh muqaddas dargohlarni va aziz qadamjolarni ziyorat qilish bilan birgalikda turli xildagi kitoblar esdalik sovg'alar har xildagi noyob antikvarlarni ham xarid qilishga urinadi. Bu bilan biz muqaddas qadamjolar yaqin atroflarida milliy hunarmandchilik do'konlari, kutubxonalar, milliy liboslar do'koni va shunga o'xshash obyektlarni qursak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Samarqandda ko'plab YUNESKOning butun jahon madaniy merosi obyektiga kirgan obida va majmualar bor. Ularning o'z ko'rinishi va arxeologik dizaynini saqlab qolgan holda saqlashimiz lozim. Ularning yaqinida qurilayotgan mehmonxonalarning ham ko'rinishiga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Agarda mehmonxona qadimiy ganchkorlik bezaklari bilan bezalgan me'moriy obidalar arxitekturaviy tuzilishi aks ettirilgan bo'lsa bu degani shu mehmonxonaga tashrif buyuruvchi mehmonlar sonining oshishiga olib keladi.

Yurtimizda ko'plab yangi qurilayotgan loyihalar, qurilish obyektlari barchasi turizm infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qilishi kerak. Yurtimizga tashrif buyurgan sayyoh sayohat manzillarini ko'rish bilan bir qatorda xalqimizning turmush sharoiti davlatimizning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bilan ham qiziqishi tabiiy. Agar biz unga yaxshi tasurot qoldirolsak u o'z yaqinlari va tanishlariga ham bizning yurtimiz haqida yaxshi taassurot yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi "2019-2028-yillarda O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha strategiyani tasdiqlash to'g'risida"gi 484-son qarori.

3. V.V.Xrabovchenko. Ekologik turizm. Moskva, Moliya va statistika, 2003. 208 b

4. A. Nigmatov, N. Shomurotova. Ekoturizm asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. - T.: ―Turon-Iqbol‖, 2007. 128 b.

5. Chubb VE O'zgartirish klimata i gidrometeorologik jarayonlarga ego ta'siri, agroklimaticheskie i vodnye resursy respebliki O'zbekiston, Toshkent, 2007, 133 b.

6. A. Nizomov, Z. Amanboeva, N. Safarova. O‘zbekistonning ekoturizm resurslari va yo‘nalishlari. -T.: “Fan va texnologiyalar”, 2014, 104 bet.

7.Sh, U. G., & Khurmatov, B. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining nazariy asoslari. *Экономика и социум*, (3-2 (118)), 401-404.

8. Umirova Gulmira. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, *4*(5), 314–319. Retrieved from https://academiascience.com/index.php/repo/article/view/696

9. Jamolov, O. (2023). FACTORS ENSURING THE ACTIVITY OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES. Экономика и социум, (2 (105)), 131-134.

10. www.stat.uz